






## YALPI HUDUDIY MAHSULOT




Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2020- yilning yanvar-sentabrida Surxondaryo viloyati bo'yicha yalpi hududiy mahsulot (keyingi o'rinlarda - YaHM ) hajmi joriy narxlarda 17122,6 mlrd. so'mni tashkil etdi va 2019- yilning yanvar-sentabri bilan taqqoslaganda 103,1 % ga o'sdi. YaHM deflyator indeksi 2019- yil yanvar-sentabridagi narxlarga nisbatan 107,2 % ni tashkil qildi.

O'zbekiston Respublikasi bo'yicha YaHMning shakllanishida Surxondaryo viloyatining qo'shgan hissasi 4,2 % ga yetdi.



### Yanvar-sentabr oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha YaHM ishlab chiqarish hajmi va o'sish sur'atlari


		Mlrd. so'm		2019- yil yanvar- sentabriga nisbatan, % da
		2019- yil yanvar- sentabr	2020- yil yanvar- sentabr	
	<b>I. YaHM</b>	<b>15 489,9</b>	<b>17 122,6</b>	<b>103,1</b>
	<i>shu jumladan:</i>			
	Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	14 816,7	16 668,7	103,1
	Mahsulotlarga sof soliqlar	673,2	453,9	103,2
	<b>Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati</b>	<b>14 816,7</b>	<b>16 668,7</b>	<b>103,1</b>
	<b>Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi</b>	<b>7 655,7</b>	<b>8 393,7</b>	<b>104,6</b>
	<b>Sanoat (qurilishni qo'shgan holda)</b>	<b>2 283,3</b>	<b>2 763,3</b>	<b>106,8</b>
	sanoat	996,6	1 268,7	110,1
	qurilish	1 286,7	1 494,6	104,2
	<b>Xizmatlar</b>	<b>4 877,7</b>	<b>5 511,7</b>	<b>99,1</b>

		Mlrd. so'm		2019- yil yanvar-sentabriga nisbatan, % da
		2019- yil yanvar-sentabr	2020- yil yanvar-sentabr	
	savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	1 292,4	1 418,1	97,4
	tashish va saqlash, axborot va aloqa	679,2	718,5	99,6
	boshqa xizmat tarmoqlari	2 906,1	3 375,1	99,7

Aholi jon boshiga hisoblangan YaHM 6465,7 ming. so'mni tashkil etdi va bu ko'rsatkich o'tgan yilning mos davriga nisbatan 0,9 % ga yuqoridir.











### Yanvar-sentabr oylarida aholi jon boshiga hisoblangan YaHM hajmi va o'sish sur'atlari




Hudud iqtisodiyotining barcha tarmoqlarida yaratilgan yalpi qo'shilgan qiymat (YaQQ) hajmi umumiy YaHMning 97,3 % ini, mahsulotlarga sof soliqlar esa 2,7 % ini tashkil etdi.

Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligining YaHM tarmoqlar bo'yicha tarkibidagi ulushi 50,4 % ni, sanoat - 7,6 % ni, qurilish - 9,0 % ni, xizmatlar - 33,0 % ni tashkil qildi.


## Yanvar-sentabr oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha YaHM tarkibi (jamiga nisbatan % da)

		2019- yil	2020- yil
	<b>I. YaHM, jami</b>	<b>100,0</b>	<b>100,0</b>
	<i>shu jumladan:</i>		
	Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	95,7	97,3
	Mahsulotlarga sof soliqlar	4,3	2,7
	<b>II. Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati</b>	<b>100,0</b>	<b>100,0</b>
	<b>Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi</b>	<b>51,7</b>	<b>50,4</b>
	<b>Sanoat (qurilishni qo'shgan holda)</b>	<b>15,4</b>	<b>16,6</b>
	sanoat	6,7	7,6
	qurilish	8,7	9,0
	<b>Xizmatlar</b>	<b>32,9</b>	<b>33,0</b>
	savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	8,7	8,5
	tashish va saqlash, axborot va aloqa	4,6	4,3

		2019- yil	2020- yil
	boshqa xizmat tarmoqlari	19,6	20,2





## Yanvar-sentabr oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha YaHM tarkibi (jamiga nisbatan % da)



YaHMning o'sishi hudud iqtisodiyotining asosiy tarmoqlaridagi ijobiy o'sish sur'atlari bilan bog'liqdir. O'sish sur'atlari qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida – 104,6 % (YaHMning tarmoqlar bo'yicha tarkibidagi ulushi – 50,4 %), sanoatda – 110,1 % (7,6 %), qurilishda – 104,2 % (9,0 %), xizmatlar sohasida – 99,1 % ni (33,0 %) tashkil etdi. Xizmatlar sohasi tarkibida o'sish sur'atlari savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda 97,4 % (8,5 %), tashish va saqlash, axborot va aloqa 99,6 % (4,3 %), boshqa xizmat tarmoqlarida 99,7 % ni tashkil etdi.




### Yanvar-sentabr oylarida YaHMning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha mutlaq o'sish sur'atlari (o'tgan yilning mos davriga nisbatan % da)



2020- yilning yanvar-sentabrida iqtisodiyotning “Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi” kabi tarmoqlari YaHMning mos ravishda 2,3 f.p. (2019- yilning yanvar-sentabrida – 1,1 f.p.), va “Sanoat” 0,6 f.p. (2019-yilning yanvar-sentabrida – 0,4 f.p.) ga o'sishiga hissa qo'shdi. Mahsulotlarga sof soliqlarning oshishi hisobiga YaHMning 0,1 f.p. ga o'sishi ta'minlandi (2019- yilning yanvar-sentabrida – 0,1 f.p.).



## 2020- yil yanvar-sentabr oylarida YaHM o'lishida tarmoqlarning qo'shgan hissasi (jamiga nisbatan % da)



2020- yil yanvar-sentabrda YaHM deflyatori indeksi 2019- yil yanvar-sentabridagi narxlarga nisbatan 107,2 foizni tashkil etdi. YaHM deflyatori indeksining eng yuqori ko'rsatkichlari sanoatda – 115,6 % va xizmatlarda – 114,0 % qayd etildi.



## Yanvar-sentabr oylarida YaHMning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha deflyator indeksi (o'tgan yilning mos davriga nisbatan % da)

